

UDC: 34(045)(575.1)

RIVOJLANGAN SHARQ DAVLATLARINING ELEKTRON VALYUTA MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH JARAYONI BOSQICHLARI VA QONUNCHILIK TIZIMI

Xolmirov Begali Abdihamidovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0003-2123-3121
e-mail: begaixolmirov2020@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlangan Sharq davlatlarining elektron valyuta munosabatlari ni huquqiy tartibga solish jarayoni, bosqichlari va tartibi yoritilgan. Ma'lumki, respublikada milliy valyutani mustahkamlashda so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa sanaladi. Rivojlangan Sharq davlatlarining elektron valyuta tizimi ularning porloq kelajagini ham ko'rsatib o'tadi. Albatta, elektron valyuta tizimini rivojlantirish yo'lida bosqichma-bosqich harakat qilish lozim. Bunga bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkonli boricha kengaytirib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orgali iste'mol tovarlari sotishning umumiyligi hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Ishimizning maqsadi hozirgi kunda mamlakatimiz va jahon amaliyotida elektron valyuta bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar, ularning huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda xalqaro maydondag'i elektron valyuta bozori xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash; elektron valyuta bozori va u orqali to'lov jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ishning obyektini elektron valyuta va uni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Maqolada rivojlangan Sharq davlatlarining elektron valyuta munosabatlari tizimini davlatimizda joriy etish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondag'i nufuzini yanada mustahkamlash, xorijiy sarmoyador, tadbirdor va ishbilarmonlar bilan iqtisodiy integratsiya samaradorligini oshirish uchun o'zimizda ham elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solish, imtiyoz va preferensiyalar berishni takomillashtirish masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Mamlakatimizda elektron valyuta munosabatlari faoliyatini takomillashtirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektron valyuta, bitcoin, WebMoney, kriptovalyuta, xalqaro to'lov tizimlari, bank tizimi.

ЭТАПЫ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА ПРОЦЕССА ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННО-ВАЛЮТНЫХ ОТНОШЕНИЙ РАЗВИТЫХ ВОСТОЧНЫХ ГОСУДАРСТВ

Холмиров Бегали Абдиҳамидовиҷ,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Основной задачей в укреплении национальной валюты в республике является повышение покупательной способности сумы и обеспечение его стабильности. Как известно, электронная валютная система, существующая в развитых восточных

странах, также предвещает светлое будущее. Безусловно, необходимо поэтапно двигаться по пути развития системы электронных валют. Это достигается за счет насыщения рынка конкурентоспособной продукцией и формирования спроса. При насыщении рынка товарами народного потребления важнейшее значение имеет максимально возможное расширение национального производства. Благодаря этому будет увеличен вклад национальной продукции в общий объем продаж потребительских товаров. Целью данной работы являются анализ существующих в настоящее время в нашей стране и мировой практике общественных отношений, связанных с электронной валютой, и их правовой основы, определение особенностей и перспектив развития рынка электронной валюты на международной арене и разработка предложений по совершенствованию рынка электронной валюты и платежного процесса посредством него. Объектом исследования являются общественные отношения, связанные с электронной валютой и ее правовым регулированием. Следует отметить, что обеспечение устойчивости экономики за счет расширения национального производства не исключает ввоза продукции из-за рубежа. В целях обеспечения населения качественными иностранными товарами будет стимулироваться и импорт. От наличия достаточного валютного резерва зависит стабильное функционирование сумы, его свободный обмен на любую валюту.

Ключевые слова: электронная валюта, биткоин, WebMoney, криптовалюта, международные платежные системы, банковская система.

STAGES AND LEGISLATIVE SYSTEM OF THE PROCESS OF LEGAL REGULATION OF ELECTRONIC CURRENCY RELATIONS OF DEVELOPED EASTERN STATES

Kholmirov Begali Abdikhamidovich,
Independent researcher
at Tashkent State University of Law

Abstract. In strengthening the national currency in the Republic, the main task is to increase the purchasing power of the sum and ensure its stability. It is known that the electronic currency system of developed Eastern countries also shows their bright future. Of course, the development of the electronic currency system should move step by step. In this case, it is achieved by filling the market with competitive products and creating the necessary needs; producing national production when filling the market with consumer goods is of decisive importance. Because through this, the share of national products in the total volume of sales of consumer goods is increased. The purpose of our work is to analyze the social relations and their legal foundations related to electronic currency in our country and world practice and to identify the features and prospects of development of the electronic currency market in the international arena and to develop proposals on improving the electronic currency market and the payment process through it. The object of the work is the social relations associated with the electronic currency and its legal regulation. It is worth noting that ensuring the stability of the sum through the expansion of national production does not deny the import of products from abroad. Imports are also encouraged in order to provide the population with high quality foreign goods. The stable validity of the sum depends on the fact that it is a sufficient foreign exchange reserve, freely exchanged for any currency.

Keywords: electronic currency, bitcoin, WebMoney, crypto currency, international payment systems, banking system.

Kirish

So'nggi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomil-lashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro elektron valyuta tajribalarini qonunchiligidizga joriy etish, elektron valyuta eksport salohiyatini oshirish yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatdir.

Raqamli valyutalar hozirda ommalashib bormoqda. Shuningdek, kriptovalyutalar markazlashtirilgan tizim tufayli juda ko'p jalb qilingan bo'lsa-da, butun dunyodagi hukumatlar virtual valyutalardan boshqa-chaga tarzda foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Rivojlangan Sharq davlatlarining elektron valyuta munosabatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-yil iyul oyi o'rtalarida Janubiy Koreya kriptovalyutalarning afzalliklaridan foydalana boshlagani haqida ma'lumot paydo bo'ldi. Bu davlatning har bir fuqarosi COVID-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan karantin doirasida kriptovalyuta yordamini olishi ham ko'zda tutilgan edi. Uning dastlabki hajmi 100 ming ₩ (83 dollar)ni tashkil etgan.

Janubiy Koreyadagi ba'zi viloyatlarning allaqachon o'z raqamli pullari mavjud va ulardan aholiga imtiyoz sifatida to'lash uchun foydalanadi. 12 million aholi istiqomat qiladigan Kyongi viloyati raqamli axborot vositalaridan samarali foydalanishning yorqin namunasidir. Geonggi-doda davlat qonunchiligiga asosan, rezidentlar so'zsiz asosiy daromad dasturi doirasida kutilayotgan mablag'larni olishlari uchun maxsus bank kartalari, shuningdek, maxsus Geonggi Money ilovasi mavjud ekan. Ushbu tizim, ayniqsa, kichik korxonalar orasida keng tarqalgan. Tovar va xizmatlarga to'lov uchun POS-terminalarni qo'llab-quvvatlaganlar iste'molchilardan mahalliy raqamli pullarni osongina qabul qilishlari mumkin.

Elektron valyuta qonunchilik tizimida 2020-yil aprel oyi o'rtalarida Janubiy Koreya markaziy banki yangi kriptovalyutani kuzatish, tahlil qilish va tasdiqlash uchun sinov dasturini ishga tushirdi. Sinov 2021-yil oxirigacha davom etdi. 22 oylik dastur davomida raqamli valyutani yaratish va chiqarish uchun zarur bo'lgan texnik va me'yoriy qoidalarni aniqlash rejalashtirilganligi sababli hozirda elektron valyuta munosabatlari yetarlichay yo'lda qo'yilgan.

Xitoyda elektron valyuta bilan bog'liq munosabatlar sodda tartibga solingan bo'lib, fuqaro raqamli yuan bilan hamyonni olish uchun davlat banklaridan biriga murojaat qilishi kifoya. Hozirda restoranlar, do'konlar va transport kompaniyalari raqamli yuanni qabul qilishga tayyorlanmoqda. Pekin 2022-yilda raqamli yuanni sinovdan o'tkazishning kengayishi haqida e'lon qildi [1].

Rossiya valyuta qonunchiligiga asosan, raqamli rubl tushunchasi hozirda xususiy, klan va idoraviy manfaatlarni muvofiqlash-tirish bosqichida. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, raqamli yuan kelajakda bitkoin va raqamli bo'limgan AQSh dollari bilan raqobatlashadigan xalqaro darajaga chiqishi mumkin.

Material va metodlar

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishda ularga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar, ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Kutilishi mumkin bo'lgan xavf va ijobiy natijalarini o'rganish, tizim istiqbollari va ular faoliyatining joriy aktual muammolarini ilmiy asoslab berish hamda natijalari yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish shular jumlasidan.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usulardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotda elektron valyuta bozori rivojlangan davlatlar tizimlari bilan bog'liq faoliyat natijalaridan misollar keltirilib, o'xshash jihatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qilingan. 2020-yil 13-martda Singapur Valyuta organi virtual valyutalar (jumladan, bitkoin) bilan ope-ratsiyalarni amalga oshiruvchi vositachilar faoliyatini tartibga solishini e'lon qildi. Bu 2020-yil apreldan beri olib borilayotgan eksperimentning sezilarli kengayishi hiso-

biga amalga oshirilgan. Har bir fuqaro bankka so'rov bilan murojaat qilishi mumkin, biroq pasport ma'lumotlari va telefon raqami ko'rsatilgan arizalar Singapur Markaziy banki tomonidan individual asosda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 3-iyul kuni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorni imzoladi. Qarorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi: kriptoaktivlar aylanmasi (taqsimlovchi platformalarni qo'llab-quvvatlash va yangi birliklar formatida mukofotlar va turli kriptovalyutalarda komission yig'implarni olish imkoniyati bilan yangi bloklarni yaratish bo'yicha faoliyat), smart-shartnomalar (huquq va majburiyatlarni avtomatlashtirilgan tartibda raqamli tranzaksiyalar yo'li bilan amalga oshirishni ko'zda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiyalar, almashinuv, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'ortalash, kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish) hamda investitsion va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiyash uchun «blokcheyn» texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish; «blokcheyn» texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash; kriptoaktivlar va «blokcheyn» texnologiyalarini bo'yicha faoliyat sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotdagi loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish uchun «blokcheyn» texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida yuqori malakali chet ellik mutaxassislarni jalg qilish; xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda, «blokcheyn» texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazoni yaratish; raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va xususiy tadbir-

korlarning o'zaro yaqin aloqalarini ta'minlash ilgari surilgan.

Rivojlangan davlatlarning Markaziy banklari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro so'rovdan so'ng ularning 80 foizga yaqini o'zlarining raqamli pul loyihalari ustida ishlayotgani ma'lum bo'ldi. Bu xalqaro elektron tijoratga xizmat qilish uchun milliy raqamli valyutalardan foydalanishni nazarda tutadi. Boshqa banklar o'zlarining raqamli valyutalarini chiqarish uchun turli konsepsiyalarni o'rganayotgan bir paytda, Xitoy o'zining yangi valyutasi joriy kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi bilan bog'lanmasligiga qaror qildi. Xitoy raqamli valyutalar xavfsizligi uchun xalqaro qoidalar va texnik standartlarni ishlab chiqishda ishtiroy etishga tayyor, deydi ular.

Qozog'istonda "mining" faoliyatiga rasman ruxsat berilgan bo'lsa-da, kriptovalyuta sohasini tartibga solish protseduralari hali ham amalga oshirilmoqda, biroq ular qonuniy ravishda pul belgisi sifatida ishlatilayotgani yo'q.

Janubiy Koreyaning Kobea Group kompaniyasiga 2019-yil 20-dekabr kuni O'zbekistondagi birinchi kripto-birjani ochishga litsenziya berildi. Hujjat kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi vakolatli organ prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tomonidan taqdim etildi, deya xabar qildi agentlik matbuot xizmati. www.Spot.uz nashrining anqlik kiritishicha, O'zbekiston anchadan buyon Kobea bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu kompaniya bilan blokcheyn-akademiya ham tashkil etilmoqda. Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 20-dekabrdagi buyrug'i bilan Kripto-birja savdosini amalga oshirish qoidalari tasdiqlandi. Unda O'zbekiston rezidentlari kripto-birjalarda faqat kripto-aktivlarni sotish bo'yicha bitimlar tuzish huquqiga ega ekanligi ham belgilandi. Bundan tashqari, kripto-aktivlar to'lov yoki to'lovnii qabul qilish vositasi sifatida ishlatishi mumkin emas.

Yaponiyada 2017-yil 1-aprelda valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Unga ko'ra, kriptovalyuta, shu jumladan, bitkoinlar to'lov vositasi maqomini oldi, faqat iyena rasmiy valyuta bo'lib qoldi.

O'zbekiston o'z valyutasini yaratishda nima qilishi mumkin? Birinchidan, blokcheyn yordamida siz iqtisodiyotning barcha sohalarida pul tejashingiz; ikkinchidan, oltin, neft va gaz zaxiralariga bog'langan valyutani yaratishingiz mumkin. Agar bu tizim joriy etilsa, iqtisodiyot har yili 10 foizga o'sadi va 10-15 yildan keyin mamlakat yalpi ichki mahsuloti Shvetsiya darajasiga yetadi.

Mening tahlillarimga ko'ra, agar xorijdan keladigan investitsiyalarni hisobga olmasak, blokcheynni joriy qilish davlat byudjet mablag'larining 30-40 foizini tejashi mumkin.

2015-yil 5-dekabrda Xitoy Xalq banki Xitoy moliya kompaniyalariga bitkoinlar bilan savdo qilishni taqiqladi. Bayonotda bitkoin so'zining haqiqiy ma'nosida valyuta emasligi ta'kidlangan [2]. Moliyaviy kompaniyalariga nafaqat bitkoinlar bilan to'g'ridan-to'g'ri operatsiyalarni amalga oshirish, balki kotirovkalarni nashr qilish yoki bitkoin bilan bog'liq moliyaviy mahsulotlarni sug'urtalash ham taqiqlangan. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar o'z tavakkalchiligi ostida Internet-tranzaksiyalarda qatnashishlari mumkin. Bitkoinlar esa pul emas, balki tovarning bir turi sifatida qaraladi [3].

2017-yil yanvar oyi boshida Singapur soliq idoralari bitkoin operatsiyalarini tovarlar va xizmatlar solig'iga tortiladigan operatsiyalar bilan tenglashtirgani ma'lum bo'ldi. Bitkoinlarni sotib olish va sotish bilan shug'ullanadigan kompaniyalardan standart daromad solig'i undirilishi rejalashtirilgan. Bitkoinlarga uzoq muddatli investitsiyalaraga soliq solinmaydi, bu kapitalga investitsiyalar bilan tengdir [4]. Bitkoinlarni real tovar va xizmatlarga almashtirishda 7 % tovar va xizmatlar solig'i undiriladi (nerezidentlar uchun tovar va xizmatlar solig'i umuman yo'q, chunki belgilanmagan).

O'zbekistonning jadal rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) makonida elektron biznesni rivojlantirish shartlari tubdan o'zgardi. Bugungi tez o'zgaruvchan biznesda davom etayotgan innovation o'zgarishlarga eng yangi aloqa vositalari va ma'lumotlarni masofadan uzatishni amalga oshiradigan zamonaviy aloqa vositalarini joriy etish orqali erishiladi. Bularning bar-chasi xalqaro va ichki iqtisodiy makonda subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini ta'minlaydigan tarmoq iqtisodiyotining asosidir [5].

Yana tahlil natijasiga keladigan bo'lsak, Dubayda kriptovalyuta to'lovlarini 2017-yildan qabul qilish boshlangan. Hozirda ko'plab yirik ishlab chiqaruvchilar ushbu sxema bo'yicha ishlamoqda. Tanlangan obyekt uchun to'g'ridan-to'g'ri bitkoinlarda to'lashingiz mumkin, ammo shartnomada uning narxi dirhamlarda belgilanadi. Bunda tashqari, Indoneziya qonunlarida ham kriptovalyuta bilan operatsiyalar qonuniylashtirilgan. Siz kriptovalyuta hamyoningizdan sotuvchining hamyoniga o'tkazish orqali xarid uchun to'laysiz. Pul o'tkazilgанинлиги to'g'risida tasdiqnomalar olgandan so'ng notarius mulk huquqini o'tkazishni rasmiylashtiradi. Tranzaksiya ishtirokchilari bankdan pul o'tkazishda belgilangan soliqlarni to'laydilar. Bunday holda xaridordan komisya olinar ekan [6].

Bizda esa hozircha Mangu (MG) bor. Mangu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha huquqiy jihatdan reklamani ifodalovchi innovatsion nuqta – piksel bo'lib, imkoniyatlari va harakatlanishiga ko'ra mamlakatdagi ilk virtual-elektron birja obligatsiyasi, raqamli aktiv hisoblanadi. Bunda tadbirkor va brend egalari yuridik shartnoma orqali pul o'tkazish yo'li bilan alohida tartibda, jismoniy shaxslar esa ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chiqib, ro'y-xatdan o'tish orqali elektron hamyonlariga pul kiritib, piksel sotib olishlari mumkin. Jismoniy shaxslar sotib olingan Mangupixel-

larini qayta sotishdan tushgan mablag'lari asosida «Mangu – Innovation» platformasida joylashgan Brendlarning mahsulot va xizmatlariga to'lov qilishlari yoki onlayn birja rejimida boshqa ishtirokchilar orqali pixellarini naqdashtirib olishlari mumkin. Jismoniy shaxs sifatidagi ishtirokchilar uchun Mangupixellari – divident va'da qilinmagan. 1 Mangu kursi bo'yicha Brendlarning mahsulot va xizmatlariga to'lov qilish orqali va kurs o'zgarishida qayta sotuv natijasida foyda olish mumkin bo'lgan elektron birja obligatsiyasi, qonuniy tartibda esa shassi aniq subyektga sotilayotgan PR-reklama uchun joy, umumiy soni cheklangani sabab narxi tobora o'zgarib boradigan innovatsion tashkilot zayomi, aksiyasi demakdir. Ishlash uslubi o'xshasa ham, Mangu o'zining shaffof va tushunarligi bilan yopiq shakldagi kriptovalyuta va bitkoinlardan farq qilib, hatto ular bilan bahslasha oladigan yangicha, foydali, qulay innovatsion loyiha hisoblanadi. «M» tangasi ichida sanog'i aniq – qayta emisсиya qilinmaydigan 1 017 125 dona o'zgarmas pixel joylashgan. Iste'mol bozorida Mangu imkoniyatlari tobora kengayib borishi, sotuvdagi piksellar hajmining kamayib, ishbilarmon va tadbirkorlar Brendlari sonining ortib borishi bevosita Mangu qadrining yuksalashini belgilaydi.

Gruziya qonunchiligi kriptovalyutalarini to'lov vositasi sifatida emas, balki aktiv sifatida ko'rib chiqadi. Shu sababli bitim barter sifatida rasmiylashtiriladi, ya'ni rasmiy ravishda xaridor bitkoinlar (yoki boshqa raqamli valyuta)ni ko'chmas mulkka almashtiradi. Shartnomada uning qiymati odatdagi valyutada, masalan, gruzin pul birligida yozilishi mumkin [6]. Bu mutlaqo qonuniy.

O'zbekiston Respublikasida Davlat xizmatlari agentligi 2020-yilning yakuniga qadar «Fuqarolik holati dalolatnomalari ni yozish (FHDYO) yagona elektron arxivini axborot tizimini blokcheyn texnologiyasiga o'tkazadi. Bu tizim axborot xavfsizligi va shaf-

fofligini ta'minlashi hamda firibgarliklarning oldini olishga yordam berishi ayttilmoqda. Qayd etilishicha, blokcheyn «FHDYO yagona elektron arxivi» axborot tizimiga qo'shimcha maxsus apparat vositalaridan foydalanmasdan xavfsiz kirish va tizimdan foydalanish imkoniyatini yaratadi, kiritilgan fuqarolik holati yozuvlari bloklar deb ataluvchi xesh-funksiya yordamida o'zgarmas blokka joylashtiriladi (xeshlash). Shu bilan bir qatorda, ma'lumotlar faqatgina tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan akkauntlar tomonidan kiritiladi, ya'ni har bir ishtirok etuvchiga maxsus login va parol beriladi. Yana bir jihat shundaki, qaysi akkaunt egasi qachon va qanday ma'lumot kiritgani shaffof ko'rinish turadi. Bu esa tizimdagи firibgarliklarning oldini olishga yordam beradi [7].

Yangi Zelandiya qonunchiligidagi agar sotuvchi kriptovalyuta bilan tranzaksiyani amalga oshirishga tayyor bo'lsa, xaridor to'g'ridan-to'g'ri bitkoinlar bilan to'lashi mumkin. Aks holda, u raqamli pulni fiatga chiqarish uchun vositachi topishi kerak. Virtual valyutalarni realga almashtiradigan bunday vositachilar o'z mijozlarini aniqlashlari va shubhalı operatsiyalar haqida tegishli bo'limga xabar berishlari lozim. Umuman olganda, xuddi shunday talablar vositachilarga real valyuta ayrboshlash, shuningdek, pul o'tkazmalarini taqdim etish bilan shug'ullanuvchi korxonalarga nisbatan qo'yiladi. Ushbu chora-tadbirlarning maqsadi virtual valyutalarning anonimligidan kelib chiqadigan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishdir [8].

Hozirgi vaqtida zamонавиј rivojlangan xorijiy davlatlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyalariiga turlicha ta'rif berilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishning asosiy masalalari ham qonun hujjatlari darajasida, ham qonun osti darajasida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasi, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foy-dalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi.

Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Qoidaga ko'ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to'lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxslar elektron pullar tizimining subyektlari hisoblanadi. Bunda elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tashkiloti elektron pullar tizimining operatoridir. Emitent yoki emitent bo'lman boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining hisob-kitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ta'kidlash joizki, emitent o'z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to'g'risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi subyektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalarini yuborishi zarur.

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, elektron pullar tizimining yaratilishi va joriy etilishi innovatsion tizimli jarayon bo'lib, hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy IT

va texnologik yechimlarga asoslangan holda, to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi. Bunda aynan "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda elektron valyuta munosabatlari faoliyati boshqaruvini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz:

- xorijiy mamlakatlarning (jumladan, Xitoy, Yaponiya) ilg'or tajribasini hisobga olgan holda, ma'lumotlarning taqsimlangan reestri texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish kerak;

- elektron biznes va elektron to'lov tizimlari, shuningdek, elektron valyuta bozorining huquqiy asosini takomillashtirishda soliqdan imtiyozlar joriy qilish zarur;

- viloyatlar miqyosida elektron bank xizmatlarini kengaytirish orqali aholining barcha qatlamlari orasida elektron valyuta bozorida faol qatnashishlari va o'z mablag'larini zamonaviy texnologiyalar asosida oson va xavfsiz boshqarish tizimini yo'lga qo'yish bosqichi ishlab chiqilishi lozim (Indoneziya tizimi);

- yangi Zelandiyada amalda bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini E-biznes orqali realizatsiya qilish tizimini davlatimizda joriy etish, buning uchun dastlab soliq bo'yicha imtiyoz joriy qilish lozim. Bu ham bevosita elektron valyuta bozori va elektron to'lov tizimining rivojlanishi uchun zamin yaratib beradi;

- banklar tomonidan elektron valyuta oldi-sotdisini amalga oshirishga doir qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish va bank xizmatlaridan biri sifatida elektron hamyonlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish; birinchidan, hozirgi vaqtida amaldagi huquqiy normalar raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga tizimli yondashuvni to'liq ta'minlay olmayapti. Raqamli iqtisodiyotning alohida mexanizmlariga nisbatan tizimlashtirilmagan

huquqiy normalar va talablarning qabul qilinishi ushbu sohani tarqoq tartibga solishga olib keladi hamda raqamli iqtisodiyotning afzalliklarini to'liq amalga oshirish imkonini bermayapti. Shundan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik tizimini tubdan takomillashtirish darkor;

- iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishning salbiy holatiga "raqamli iqtisodiyot" tushunchasidan boshlab yagona konseptual apparatning yo'qligi ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan yagona konseptual apparat tizimini shakllantirish lozim.

REFERENCES

1. Loi H. Essays on digital currency. OpenSIUC, 2016, 12 p. Available at: <https://opensiuc.lib.siu.edu/dissertations/1179/>.
2. Callen N.J. The technological, economic and regulatory challenges of digital currency| an exploratory analysis of federal judicial cases involving bitcoin. Thesis, Robert Morris University, 2018. Available at: <http://pqdtopen.proquest.com/#viewpdf?dispub=10745672/>.
3. Brodbeck S. Virtual money – A new form of privately issued money in the moneymarket. European School of Management, Paris, May. Businessweek, *Virtual World, Real Money*, 2007, May 1.
4. Vallance Ph.J Digital Control of Levitation. Thesis, Virginia Tech, 2001. Available at: <http://hdl.handle.net/10919/33767/>.
5. X.S. Hamroqulov. O'zbekistonda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash [Ensuring the stability of the national currency in Uzbekistan]. *XXII century: Science and Education*, 2018, no. 6.
6. Allan M.J. Digital Currency in the Digital Age. Portfolio Diversification Using Bitcoin and Litecoin. 2014, 32 p. Available at: http://scholarship.claremont.edu/cmc_theses/831/.
7. FHDYO organlarida blokcheyn tizimi qo'llaniladi [Blockchain system is used in civil registry offices]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/07/24/blockchain-registry/>.
8. Teichmann F., Falker M.-Ch. Will Digital Currencies Replace Cash? Digital, Currency, Privacy and Surveillance. University of Leipzig, 2020, 22 p. Available at: <https://ul.qucosa.de/id/qucosa%3A70813/>.
9. Malkina M.Yu. Inflyatsionnyye protsessy i denezhno-kreditnoye regulirovaniye v Rossii i zarubezhom [Inflationary processes and monetary regulation in Russia and abroad]. Moscow, INFRA-M, 2012, p. 254.
10. Moiseyev S.R. Denezhno-kreditnaya politika: teoriya i politika [Monetary policy: theory and policy]. Moscow, Moscow Financial and Industrial Academy, 2011, p. 21.
11. U.O'. Azizov. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda monetar va fiskal das-taklar ta'siri [The impact of monetary and fiscal support on sustainable economic growth in Uzbekistan]. Tashkent, Iqtisod-Moliya Publ., 2013, p. 15.
12. Namozov O., Sagdullayev S. Inflyatsionnoye targetirovaniye v monetarnoy politike stran s perkhodnoy ekonomikoy [Inflation targeting in the monetary policy of countries in transition]. *Market, money and credit*, 2003, April, pp. 35-39.
13. The role of central bank money in payment systems. *CPSS Publications*, 2003, August, no. 55.
14. Sales of virtual goods boom in US. *BBC News*, 2009, October. Available at: <http://news.bbc.co.uk/2/hi/technology/8320184.stm/>.
15. Teoreticheskiye osnovy gosudarstvennogo regulirovaniya denezhnogo obrashcheniya [Theoretical foundations of state regulation of money circulation]. Available at: <http://msd.com.ua/finansy-dengi-kredit-i-banki/regulirovanie-denezhnogoobrashcheniya-kak-chast-denezhno-kreditnoj-politiki-gosudarstva/>.

16. McCoy M.E. A twitter-based prediction tool for digital currency. *OpenSIUC*, 2018. Available at: <https://opensiuc.lib.siu.edu/theses/2302/>.
17. Ye Sh., Zhou Sh. Central bank digital currencies: towards a Chinese approach: Design choices of digital currency electronic payment. Student Thesis, International Business School, Jönköping University, IHH, Business Administration, 2020. Available at: <http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:hj:diva-48662/>.
18. Shkoda D. Bitcoin jako forma digitálních peněz [Bitcoin as a form of digital money]. Master Thesis, University of Economics in Prague, 2014. Available at: <http://www.nusl.cz/ntk/nusl-198623/>.
19. Kozlik P. Exploring digital currencies: Designing a peer-to-peer exchange with use of Blockchain. Student thesis, Malmö University, Faculty of Culture and Society (KS), 2015. Available at: <http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:mau:diva-22275/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:
Xodjayev Baxshillo Kamolovich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ikrom Ergashev
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov
Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova
Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 47.
TDYU tipografiyasida chop etildi.